



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI LEKSIKASIDA GENDER TAVSIFINING TAQQOSIY TADQIQI

Rahmonova Ra'no Sheraliyevna,

Qo'qon universiteti Filologiya kafedrası o'qituvchisi

Ranorahmonova872@gmail.com

ORCID: 0009-0009-2341-8219

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil

Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil

Jurnal soni: 17

Maqola raqami: 69

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1419>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Gender, leksika, taqqosiy tahlil, ingliz tili, o'zbek tili, lingvistik stereotip.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida leksikaning gender bilan bog'liq xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki tilda jinsni ifodalovchi leksik birliklarning shakllanishi, qo'llanishi va ularning ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog'liqligini aniqlashdan iborat. Shuningdek, genderga oid so'z va birikmalarning nutq jarayonida qanday semantik yuklama kasb etishi, stereotiplar shakllanishida tutgan o'rni ham tadqiqot markazida turadi.

Ish davomida ingliz va o'zbek tillaridagi adabiy matnlar, ommaviy axborot vositalari hamda zamonaviy nutq namunalari tuzilgan korpus materiallari asosida tahlil o'tkazildi. Kvantitativ yondashuv yordamida genderga oid leksik birliklarning chastotasi aniqlanib, ularning qaysi sohalarida ko'proq qo'llanishi statistik jihatdan ko'rsatib berildi. Sifatli tahlil esa ushbu birliklarning kontekstual ma'nosi, pragmatik funksiyasi hamda madaniy ramziyligini ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida genderga oid leksika asosan ijtimoiy rollar va kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida esa madaniy qadriyatlar, an'anaviy ijtimoiy munosabatlar va tarixiy tajriba muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Har ikki tilda ham gender stereotiplari til orqali mustahkamlanishi yoki qayta shakllanishi mumkinligi aniqlandi. Mazkur tadqiqot xulosalari gender lingvistikasi, sotsiolingvistika hamda tarjima nazariyasi sohalarida amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kirish. Til inson jamiyatining asosiy aloqa vositasi bo'lib, unda jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashi mujassam bo'ladi. Har bir til o'z taraqqiyoti davomida jamiyat hayotining turli jihatlarini aks ettiradi, jumladan, genderga oid qarashlar ham til tizimi orqali ifodalanadi. Shu sababli gender va til o'rtasidagi munosabatni o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillari turli tarixiy sharoitlarda shakllangan, madaniy tajribasi va ijtimoiy tuzilmasi jihatidan farqlanadi, bu esa ularning leksik tizimida gender ifodalanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan.

Ingliz tilida grammatik jins kategoriyasi deyarli mavjud emas, faqat shaxs olmoshlari orqali jins farqlanadi. Shunga qaramay, leksik birliklar orqali genderga oid ma'nolar keng ifodalanadi. Kasb nomlari, ijtimoiy rollar va shaxsiy sifatarni ifodalovchi so'zlar ko'pincha jamiyatda shakllangan stereotiplarga tayanadi. Masalan, ayrim kasb nomlari an'anaviy tarzda erkak yoki ayol shaxs bilan bog'lab tasavvur qilinadi. Bu holat tilning nafaqat kommunikativ, balki ijtimoiy-madaniy funksiyasini ham yaqqol namoyon etadi.

O'zbek tilida esa grammatik jins alohida kategoriya sifatida mavjud bo'lmas-da, leksik birliklar orqali gender ifodasi ancha faol tarzda amalga oshiriladi. Ayrim so'zlar, qo'shimchalar va iboralar ayol yoki erkak shaxsga xos xususiyatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Bunda milliy mentalitet, urf-odatlar va tarixiy tajriba muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, oilaviy munosabatlar, tarbiya, rahbarlik va ijtimoiy mavqe bilan bog'liq so'zlar ko'pincha genderga oid semantik yuklama kasb etadi. Bu esa til orqali jamiyatda shakllangan an'anaviy qarashlar va rollarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Gender lingvistikasi va sotsiolingvistika sohalarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til faqat voqelikni aks ettiribgina qolmay, balki uni shakllantirishda ham faol ishtirok etadi. Gender stereotiplari, rollar va ijtimoiy kutilmalar ko'pincha til vositalari orqali avloddan-avlodga uzatiladi. Natijada, til inson ongida ayol va erkak shaxsiga oid tasavvurlarni shakllantiruvchi muhim omillardan biriga aylanadi. Bu jarayon nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va tarjima sohalar uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Ingliz va o'zbek tillarida genderga oid leksik birliklarni taqqoslash ushbu tillarda mavjud umumiyliklar va farqlarni aniqlashga imkon beradi. Ayniqsa, globalizatsiya sharoitida tillararo muloqot kuchayib

borayotgan bir paytda, gender masalasining til orqali qanday ifodalanishini chuqur o'rganish zarurati ortib bormoqda. Chunki tarjima jarayonida yoki chet tilini o'rganishda genderga oid nozik semantik farqlarni hisobga olmaslik noto'g'ri talqinlarga, ba'zan esa madaniy nomuvofiqliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, gender leksikasini qiyosiy tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillarida genderga oid leksik birliklarni aniqlash, ularning qo'llanish xususiyatlarini va kontekstual ma'nosini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ushbu birliklarning ijtimoiy stereotiplar bilan qanday bog'liqligi ham o'rganiladi. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, har ikki tilda genderga oid so'z va iboralarni tizimli ravishda tasniflash; ikkinchidan, ularning nutq jarayonidagi funksiyasini, semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish; uchinchidan, til o'rganish va tarjima amaliyotida gender jihatlarini hisobga olish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Shu tariqa, mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida gender leksikasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, til orqali gender munosabatlarining qanday ifodalanishini tushuntirishga hamda gender lingvistikasi sohasidagi mavjud ilmiy qarashlarni boyitishga qaratilgan.

Gender lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikda muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, u til, jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishga qaratilgan. Bu soha grammatik va leksik jins, ijtimoiy gender rollari, stereotiplar hamda madaniy me'yorlarning til orqali qanday ifodalanishini tahlil qiladi. R. Lakoff (1975)¹ tilni gender tengsizligining aks ettiruvchi va mustahkamlovchi vositasi sifatida talqin qiladi hamda ayollar nutqi va erkaklar nutqi o'rtasidagi farqlar ijtimoiy tuzilma bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlaydi. J. Holmes (2008)² esa gender farqlari til orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va hokimiyat tuzilmalarini tushunishda muhim kalit vazifasini bajarishini qayd etadi.

Ingliz tilida grammatik jins deyarli rivojlanmagan bo'lib, u asosan shaxs olmoshlari orqali ifodalanadi. Biroq leksik darajada genderga oid ma'nolar keng ko'lamda namoyon bo'ladi. D. Sunderland (2006)³ ingliz tilidagi ko'plab kasb nomlari va ijtimoiy rollar jamiyatda shakllangan stereotiplarga asoslanib, ma'lum bir jins bilan bog'lanishini ko'rsatadi. Masalan, "nurse" so'zi ko'pincha ayol shaxs bilan, "engineer" esa erkak

¹ Lakoff, R. (1975). *Language and Woman's Place*. New York: Harper & Row.

² Holmes, J. (2008). *An Introduction to Sociolinguistics*. London: Routledge.

³ Sunderland, J. (2006). *Language and Gender: An Advanced Resource Book*. London: Routledge.

shaxs bilan assotsiatsiyalanadi. Bu holat ingliz tilida genderning asosan ijtimoiy va madaniy omillar orqali shakllanishini tasdiqlaydi.

O'zbek tilida grammatik jins alohida kategoriya sifatida mavjud bo'lmasa-da, leksik birliklar orqali gender farqlari aniq seziladi. N. Karimova (2017)⁴ o'zbek tilida gender leksikasining shakllanishida tarixiy tajriba, milliy qadriyatlar va madaniy me'yorlar muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ayrim so'zlar, qo'shimchalar va iboralar orqali shaxsning ayol yoki erkak ekanligi, shuningdek, unga xos ijtimoiy rol va mavqe ifodalanadi. Masalan, "onaxon", "opa", "kelin" kabi birliklar ayol shaxsga xos ijtimoiy rollarni bildirsa, "oqsoqol", "ota", "aka" kabi birliklar erkak shaxsning mavqe'i va tajribasini ta'kidlaydi.

Leksik birliklarda genderning ifodalanishi turli til birliklari orqali amalga oshiriladi. Ismlar, sifatlar, fe'llar va frazeologik birikmalar genderga oid ma'nolarni tashuvchi asosiy vositalar hisoblanadi. J. Coates (2013)⁵ fikricha, gender nafaqat so'zlarning leksik ma'nosida, balki ularning nutqdagi qo'llanish usulida ham namoyon bo'ladi. O'zbek tilida tarbiya, g'amxo'rlik va oilaviy munosabatlar bilan bog'liq ayrim fe'llar ko'pincha ayol shaxsga nisbatan ishlatilsa, rahbarlik, mas'uliyat va muammolarni hal etish bilan bog'liq iboralar ko'proq erkak shaxs bilan bog'lanadi. Ingliz tilida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi, biroq bu jarayon ko'proq ijtimoiy stereotiplar asosida shakllanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida gender stereotiplari leksik tizimda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. R. Wardhaugh (2010)⁶ til jamiyatdagi ijtimoiy rollarni nafaqat aks ettirishi, balki ularni mustahkamlashini ham ta'kidlaydi. Ingliz tilida ayrim kasb nomlari yoki ijtimoiy rollar an'anaviy ravishda ayol yoki erkak shaxs bilan bog'lanadi. O'zbek tilida esa gender stereotiplari ko'proq madaniy qadriyatlar va tarixiy tajriba asosida shakllanadi. Ayol shaxsga nisbatan mehr, sabr-toqat, tarbiya va oilaviy mas'uliyat kabi sifatlar ta'kidlangan bo'lsa, erkak shaxsga nisbatan dono, tajribali, yetakchi va mas'uliyatli bo'lish kabi xususiyatlar ustuvor hisoblanadi.

Mazkur farqlar til o'rganish, tarjima va sotsiolingvistik tadqiqotlar jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. J. Holmes va M. Meyerhoff (2003)⁷ ta'kidlaganidek, genderga oid lingvistik birliklarni to'g'ri talqin qilmaslik madaniy nomuvofiqlik va kommunikativ xatolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, gender leksikasini qiyosiy tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Ushbu nazariy asos ingliz va o'zbek tillarida genderning leksik darajada ifodalanishini chuqurroq anglash, til orqali jamiyatdagi gender munosabatlarining qanday shakllanishini tushuntirish va kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida genderga oid leksik birliklarni aniqlash, ularning qo'llanish xususiyatlarini va ijtimoiy-ma'naviy kontekst bilan bog'liqligini ochib berishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida ilmiy izlanishlarga xos tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot materiali sifatida tilning turli uslubiy qatlamlarini qamrab oluvchi manbalar tanlab olindi, bu esa olingan natijalarning umumiylik darajasini oshirishga xizmat qildi.

Ma'lumotlar manbai sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy adabiyot namunalari, ommaviy axborot vositalari hamda zamonaviy internet matnlari tanlab olindi. Ingliz tili bo'yicha romanlar, hikoyalar, gazeta maqolalari va blog yozuvlari tadqiqot uchun asosiy manba vazifasini bajardi. O'zbek tili bo'yicha esa adabiy asarlar, davriy matbuot nashrlari, rasmiy va norasmiy internet platformalaridagi matnlarni qamrab olindi. Ushbu manbalar asosida tuzilgan umumiy korpus hajmi 500 mingdan ortiq so'zni tashkil etdi. Korpusni shakllantirishda matnlarning janr, mavzu va uslub jihatidan xilma-xilligiga alohida e'tibor qaratildi, chunki genderga oid leksik birliklar turli kontekstlarda turlicha ma'no kasb etishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida kvantitativ va sifatli tahlil usullari o'zaro uyg'unlashtirildi. Kvantitativ tahlil orqali genderga oid leksik birliklarning chastotasi aniqlanib, ularning har ikki tilda qaysi darajada

va qaysi sohalarida ko'proq qo'llanilishi statistik jihatdan ko'rsatib berildi. Bunda har bir leksik birlik matndan ajratib olinib, uning takrorlanish soni, turli janrlarda uchrash darajasi va umumiy korpusdagi ulushi hisoblab chiqildi. Ushbu yondashuv ingliz va o'zbek tillarida gender leksikasining umumiy tarqalish tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi.

Sifatli tahlil esa leksik birliklarning kontekstual ma'nosi, semantik xususiyatlari va pragmatik funksiyasini chuqurroq anglashga qaratildi. Har bir tanlangan birlik o'z konteksti doirasida tahlil qilinib, uning ayol yoki erkak shaxs bilan bog'liq semantik yuklamasi aniqlashtirildi. Masalan, ayrim so'zlar yoki iboralar bevosita jinsni ifodalasa, boshqalari bilvosita tarzda ijtimoiy rollar, xulq-atvor me'yorlari yoki madaniy kutilmalarni aks ettirishi kuzatildi. Bu jarayon gender leksikasining faqat tashqi shaklini emas, balki uning mazmuniy qatlamlarini ham ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqotda frazeologik birliklar va metaforik ifodalar ham alohida e'tibor bilan o'rganildi. Chunki frazeologizmlar ko'pincha jamiyatdagi gender stereotiplarini mustahkamlovchi yoki aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillarida uchraydigan bunday birliklar tanlab olinib, ularning kelib chiqishi, qo'llanish sohasi va semantik rivoji tahlil qilindi. Metaforik ifodalar esa genderga oid tasavvurlarni bilvosita tarzda ifodalashi sababli, ularni o'rganish til orqali jamiyat ongida shakllangan gender obrazlarini anglash imkonini berdi.

Tahlil jarayonida leksik birliklar turkumlar bo'yicha tasniflandi: ismlar, sifatlar, fe'llar va frazeologik birikmalar alohida guruhlariga ajratildi. Har bir guruh doirasida gender bilan bog'liq birliklarning xususiyatlari, ularning semantik maydoni va qo'llanish konteksti o'rganildi. Bu yondashuv gender leksikasining tizimli tuzilishini aniqlash hamda har ikki tilda mavjud o'xshashlik va farqlarni yanada aniqroq ko'rsatib berishga yordam berdi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli ham faol qo'llanildi. Ingliz va o'zbek tillarida aniqlangan genderga oid leksik birliklar o'zaro solishtirilib, ularning semantik mosligi, qo'llanish darajasi va ijtimoiy kontekst bilan bog'liqligi tahlil qilindi. Bu usul har ikki tilda gender ifodalanishining umumiy tendensiyalari va o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi tizimli, ko'p bosqichli va integrativ yondashuvga asoslandi. Kvantitativ va sifatli tahlil usullarining uyg'unligi, keng va xilma-xil korpus materiallaridan foydalanish hamda qiyosiy yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliliigi va ilmiy ahamiyatini oshirdi. Ushbu metodologik yondashuv ingliz va o'zbek tillarida gender leksikasini chuqurroq anglash, til orqali jamiyatdagi gender munosabatlarining qanday shakllanishini tushuntirish hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam asos yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. Mazkur tadqiqot doirasida ingliz va o'zbek tillarida genderga oid leksik birliklarning tarqalishi, qo'llanish xususiyatlari hamda ularning ijtimoiy va madaniy kontekst bilan bog'liqligi tahlil qilindi. Olingan natijalar har ikki tilning gender leksikasi o'ziga xos tuzilishga ega ekanini va ularning shakllanishida turli omillar muhim rol o'ynashini ko'rsatdi.

Avvalo, genderga oid leksik birliklarning umumiy taqsimoti o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilida 120 ta genderga oid birlik aniqlanib, ularning 50 tasi erkaklarga xos, 40 tasi ayollarga xos, 30 tasi esa neytral xarakterga ega ekanligi qayd etildi. O'zbek tilida esa jami 110 ta shunday birlik aniqlanib, ulardan 55 tasi erkaklarga xos, 35 tasi ayollarga xos, 20 tasi esa neytral sifatida tasniflandi. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda erkaklarga oid birliklar son jihatidan ustun bo'lsa-da, ingliz tilida ayollarga oid birliklar nisbatan ko'proq kontekstual xilma-xillikka ega. Quyidagi jadval mazkur taqsimotni umumlashtirilgan holda aks ettiradi:

⁴ Karimova, N. (2017). *O'zbek tilida gender leksikasi*. Toshkent: Fan.

⁵ Coates, J. (2013). *Women, men and language: A sociolinguistic account of gender differences in language* (3rd ed.). London: Routledge.

⁶ Wardhaugh, R. (2010). *An introduction to sociolinguistics* (6th ed.). Oxford: Wiley-Blackwell.

⁷ Holmes, J., & Meyerhoff, M. (2003). *The handbook of language and gender*. Malden, MA: Blackwell Publishing.

Genderga oid leksik birliklarning taqsimoti

TIL	GENDERGA OID BIRLIKLAR SONI	ERKAKLARGA XOS	AYOLLARGA XOS	NEYTRAL
INGLIZ	120	50	40	30
O'ZBEK	110	55	35	20

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida genderga oid leksik birliklar asosan ijtimoiy stereotiplarga tayanadi. Ya'ni, ayrim so'zlar jamiyatda shakllangan an'anaviy qarashlar asosida ayol yoki erkak shaxs bilan bog'lanadi. O'zbek tilida esa genderga oid birliklar ko'proq tarixiy tajriba, madaniy qadriyatlar va an'anaviy ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Bu farq har ikki tilda gender leksikasining shakllanish jarayoni turli ijtimoiy omillar ta'sirida kechganini ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida har ikki tildan aniq misollar tanlab olinib, ularning kontekstual ma'nosi tahlil qilindi. Ingliz tilida "The actress received an award" jumlasida "actress" so'zi ayol shaxsni bevosita ifodalaydi. "The chairman opened the meeting" jumlasida esa "chairman" erkak shaxs bilan bog'liq ijtimoiy rolni bildiradi. "The doctor treated the patient" jumlasida esa shifokor kasbi jins jihatidan neytral bo'lib, shaxsning ayol yoki erkak ekanligi kontekstdan kelib chiqib aniqlanadi. Ushbu misollar ingliz tilida gender ifodasi ko'pincha ijtimoiy rol va kasb nomlari orqali amalga oshirilishini ko'rsatadi.

O'zbek tilidagi misollar ham shunga o'xshash holatni namoyon etadi. "Onaxon bolani tarbiyaladi" jumlasida "onaxon" so'zi ayol shaxsga xos ijtimoiy rolni bildiradi. "Oqsoqol masalani hal qildi" jumlasida esa "oqsoqol" so'zi erkak shaxsga xos tajriba, hurmat va yetakchilik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. "Shifokor bemorni


davoladi" jumlasida esa kasb nomi jins jihatidan neytral bo'lib, shaxsning jinsi kontekstdan kelib chiqib aniqlanadi. Ushbu misollar o'zbek tilida gender ifodasi ko'pincha ijtimoiy mavqe, oila va jamiyatdagi rol bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqotda frazeologik birliklar ham alohida tahlil qilindi, chunki ular gender stereotiplarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilidagi "man of the house" iborasi erkak shaxsni oiladagi yetakchi va mas'ul shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu ibora jamiyatda erkakning oiladagi asosiy qaror qabul qiluvchi roliga bo'lgan an'anaviy qarashlarni aks ettiradi. O'zbek tilidagi "ayol ko'zi bilan qarash" iborasi esa ayol shaxsning hissiyotga moyilligi, mehribonligi yoki sezgirligi kabi xususiyatlarga urg'u beradi. Ushbu frazeologizmlar har ikki tilda genderga oid stereotiplarning til orqali qanday mustahkamlanishini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, gender birliklarining umumiy taqsimoti diagramma asosida ham tahlil qilindi. Ingliz tilida erkaklarga oid birliklar 42 foizni, ayollarga oid birliklar 33 foizni, neytral birliklar esa 25 foizni tashkil etadi. O'zbek tilida esa erkaklarga oid birliklar 50 foizni, ayollarga oid birliklar 32 foizni, neytral birliklar esa 18 foizni tashkil etadi.

Mazkur foiz nisbatlari quyidagi diagrammada umumlashtirilgan:

Diagramma 1. Gender birliklarining foiz taqsimoti.



Shakl ko'rsatadiki, o'zbek tilida erkaklarga oid leksik birliklar ingliz tiliga nisbatan ko'proq uchraydi, ingliz tilida esa ayollarga oid birliklar kontekstual jihatdan kengroq qo'llaniladi. Bu farq har ikki tilda gender leksikasining shakllanishida turli ijtimoiy va madaniy omillar muhim rol o'ynaganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida gender leksikasi turli ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar ta'sirida shakllanganini tasdiqlaydi. Har ikki tilda ham genderga oid birliklar nafaqat shaxsning jinsini, balki uning jamiyatdagi o'rnini, roli va mavqeini ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu natijalar gender lingvistikasi va sotsiolingvistika sohalarida olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi hamda tarjima va til o'rganish jarayonida gender jihatlarini hisobga olish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari asosida ingliz va o'zbek tillarida gender leksikasining tuzilishi, ifodalanish usullari va ijtimoiy kontekst bilan bog'liqligi bo'yicha bir nechta muhim xulosalar chiqarish mumkin.

Birinchidan, **strukturaviy farqlar** aniqlanadi. Ingliz tilida leksik jins ko'proq ijtimoiy stereotiplarga bog'liq bo'lib, so'zlar va iboralar shaxsning jamiyatdagi roli yoki kasbi bilan bog'lanadi. Masalan, *nurse* so'zi odatda ayol shaxsni ifodalashda ishlatiladi, *engineer* esa erkak bilan bog'lanadi. Bu til tizimida grammatik jins deyarli yo'q bo'lsa-da, leksik birliklar orqali gender ifodasi sezilarli tarzda yuzaga chiqadi.

O'zbek tilida esa leksik jins va gender ifodasi ko'proq **madaniy va tarixiy kontekstga** tayangan. Ba'zi so'zlar morfemalar orqali jinsni bildiradi, masalan, *mudira* ayol rahbarini, *oqsoqol* esa erkak yetakchilik mavqeini bildiradi. Shuningdek, frazeologik birliklar va an'anaviy iboralar gender stereotiplarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, *ayol ko'zi bilan qarash* iborasi ayolning hissiyotga moyilligi va mehribonligini ifodalaydi. Bu farqlar tilning ijtimoiy va madaniy qatlamlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, til o'rganish va tarjimada alohida e'tibor talab qiladi.

Ikkinchidan, **sifatli tahlil natijalari** gender stereotiplarini yanada aniqroq ochib beradi. Ingliz tilidagi so'zlar va iboralar, masalan, *nurse*, *engineer*, *actress*, *chairman*, jamiyatda shakllangan jinsiy rollarni

mustahkamlashi mumkin. Bu, ayniqsa, matbuot, adabiyot va ommaviy axborot vositalarida ko'p uchraydi. O'zbek tilida esa gender ifodasi morfemalar (-xon, oq-, onaxon) va frazeologik birliklar orqali amalga oshadi. Shuning uchun tilni o'rganuvchi yoki tarjimon bu jihatlarni hisobga olmasa, noto'g'ri kontekstda ishlatilgan so'zlar gender stereotiplarini kuchaytirishi yoki noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, bu farqlar **til o'rganish va tarjima jarayonida** muhim rol o'ynaydi. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasida gender ifodasi mexanizmlari va ijtimoiy kontekst farqlari mavjud bo'lgani uchun tarjimonlar va o'qituvchilar bu tafovutlarni e'tibordan chetda qoldirmasliklari lozim. Masalan, ingliz tilidagi neytral kasblar o'zbek tiliga tarjima qilinyotganda, ijtimoiy rol va jinsiy stereotiplarni hisobga olish zarur. Aks holda, tarjimada yoki til darslarida gender stereotiplarining kuchayishi mumkin.

Shuningdek, bu tahlil **lingvistik va sotsiolingvistik jihatdan** qimmatli natijalar beradi. Har ikki tilda gender ifodalanishi turli ijtimoiy va madaniy omillar bilan shakllangan bo'lsa-da, ularning qo'llanilishi va kontekstual xususiyatlari solishtirilganda til orqali jamiyatlardagi gender munosabatlarini aniqlash va tushunishga yordam beradi. Bu xulosalar tilshunoslik, pedagogika, psixologiya va tarjima sohalarida amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida gender leksikasi shakllanish mexanizmlari turlicha bo'lsa-da, har ikki til jamiyatlardagi ijtimoiy stereotiplar va an'anaviy qadriyatlarni aks ettirishda samarali vosita hisoblanadi. Tarjima va til o'rganishda bu tafovutlarni hisobga olish nafaqat ilmiy, balki amaliy nuqtai nazardan ham muhimdir.

Xulosa. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida genderga oid leksik birliklarning shakllanishi, ishlatilishi va ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog'liqligini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari bir necha muhim xulosalarni beradi.

Birinchidan, **struktura va ishlatilishdagi farqlar** aniqlandi. Ingliz va o'zbek tillarida gender leksikasi shakllanish mexanizmlari sezilarli

darajada farq qiladi. Ingliz tilida gender ifodasi ko'proq ijtimoiy stereotiplarga bog'langan bo'lsa, o'zbek tilida bu jarayon madaniy qadriyatlar va tarixiy an'analar orqali amalga oshadi. Masalan, ingliz tilidagi *actress, chairman, nurse* kabi so'zlar shaxsning jamiyatlardagi roli va kasbiga bog'liq bo'lsa, o'zbek tilidagi *mudira, oqsoqol, onaxon* kabi birliklar esa ko'proq jamiyatlardagi mavqe va madaniy kontekst bilan bog'liq.

Ikkinchidan, **til o'rganish va tarjimada qo'llanilishi** masalasi muhimligini ko'rsatadi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, genderga oid leksik birliklarning noto'g'ri talqini yoki tarjimasi stereotiplarni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, til o'rganuvchilar, o'qituvchilar va tarjimonlar ushbu tafovutlarni hisobga olgan holda, kontekstual va madaniy jihatlarni e'tibordan chetda qoldirmasliklari lozim.

Uchinchidan, natijalar **sotsiolingvistik tadqiqotlar** uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Har ikki tilda gender leksikasi jamiyatlardagi ijtimoiy normalarni, qadriyatlarni va stereotiplarni aks ettirish vositasi sifatida ishlashini ko'rsatadi. Bu esa tilshunoslik va sotsiolingvistika sohalarida kelgusidagi izlanishlarga ilmiy asos yaratadi.

To'rtinchidan, kelajakdagi tadqiqotlarni rivojlantirish uchun bir nechta tavsiyalar berish mumkin. Avvalo, boshqa tillar bilan taqqosiy tahlil olib borish orqali gender leksikasining universal va tilga xos jihatlarni aniqlash mumkin. Shuningdek, korpus hajmini kengaytirish va zamonaviy ommaviy axborot, ijtimoiy tarmoqlar matnlarini qo'shish tadqiqotning aniqligini oshiradi. Bu yondashuv turli madaniyat va jamiyatlarda gender leksikasining shakllanishi va ishlatilishini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida gender leksikasi turli ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida shakllangan bo'lsa-da, ularning har biri jamiyatlardagi gender munosabatlarini til orqali ifodalashda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari nafaqat ilmiy, balki amaliy nuqtai nazardan ham ahamiyatlidir va til o'rganish, tarjima hamda sotsiolingvistik tadqiqotlarda qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lakoff, R. (1975). *Language and Woman's Place*. New York: Harper & Row.
2. Holmes, J. (2008). *An Introduction to Sociolinguistics*. London: Routledge.
3. Karimova, N. (2017). *O'zbek tilida gender leksikasi*. Toshkent: Fan.
4. Sunderland, J. (2006). *Language and Gender: An Advanced Resource Book*. London: Routledge.
5. British National Corpus, O'zbek Korpus Matnlari
6. Karimova, N. (2017). *O'zbek tilida gender leksikasi*. Toshkent: Fan.
7. Coates, J. (2013). *Women, men and language: A sociolinguistic account of gender differences in language* (3rd ed.). London: Routledge.
8. Wardhaugh, R. (2010). *An introduction to sociolinguistics* (6th ed.). Oxford: Wiley-Blackwell.